Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Isajon Sulton hikoyalarida frazeologik birliklarning obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni ta’minlashdagi o‘rni

Adiba Nishonova*

✉ adibanishonova97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Isajon Sulton hikoyalarida qo‘llangan frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari va badiiy matnni shakllantirishdagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. Frazeologik birliklarning obrazlilik va ma’no chuqurligini yaratish, emotsional-ekspressiv ta’sir kuchini oshirish, diniy dunyoqarashni aks ettirish, matnning ma’no zichligini ta’minlash hamda muayyan kontekstda semantik jihatdan aktualizatsiyalash kabi vazifalari badiiy misollar asosida yoritiladi. Tadqiqotda yozuvchi hikoyalaridan olingan “o‘tga-suvga kirmoq”, “mag‘zini chaqmoq”, “boshi qotmoq”, “jonini Haqqa topshirmoq”, “og‘izdan og‘izga o‘tmoq”, “suyagi sanalmoq” kabi frazeologik birliklarning kontekstual-semantik va lingvopoetik xususiyatlari tahlil etiladi. Tahlillar frazeologizmlarning badiiy nutqda nafaqat tayyor til birliklari sifatida, balki muallifning individual uslubini yuzaga chiqaruvchi, qahramonlarning ruhiy holatini ifodalovchi va voqelikni obrazli tasvirlashga xizmat qiluvchi poetik vosita sifatidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning xalqning milliy-madaniy tajribasi, diniy qarashlari va hayotiy tasavvurlari bilan bog‘liqligi ochib beriladi. Natijada Isajon Sulton ijodida frazeologizmlarning badiiy-estetik va lingvopoetik imkoniyatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar

frazeologizm, lingvopoetika, lingvopoetik funksiya, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik, ma’no zichligi, semantik aktualizatsiya, diniy dunyoqarash, milliy-madaniy xususiyat.

DOI: 10.5281/zenodo.23278818

Kirish/ Introduction/ Введение

Badiiy matn tilining lingvistik tadqiqi nafaqat jahon, balki o‘zbek adabiyotshunoslik va tilshunosligida ham dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e’tirof etilgan. Bu sohadagi izlanishlarning markazida badiiy matnning tuzilishi, uning stilistik xususiyatlari, estetik vazifalari hamda muallifning shaxsiy uslubining lingvopoetik tabiati kabi masalalar yotadi. Shu bois badiiy tilni o‘rganish zamonaviy filologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy yo‘nalishlarini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Badiiy matnni tahlil qilishning turli usullari va metodlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular orasida ikki yondashuvni asos sifatida ko‘rsatish mumkin. Ular lingvistika va adabiyotshunoslikka oid yondashuvlar bo‘lib, lingvistik metod uchun tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi til hisoblanadi, matn esa umumiy til qonuniyatlarining namoyon bo‘lishi nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Adabiyotshunoslikda esa boshlang‘ich nuqta sifatida matn tanlanadi va til tahlil uchun yordamchi material sifatida ishlatiladi. Badiiy asarlar tilini o‘rganish filologiyani lingvistika va adabiyotshunoslikka, shuningdek, filologiyaning bir sohasi sifatida stilistikani lingvistik va adabiyotshunoslik stilistikasi sifatida ajratish kerak degan fikrni tasdiqlaydi. Frazeologiyani so‘zga tenglashtirishdan ko‘ra uning funksional, leksik-semantik jihatdan so‘zga mos kelishi haqida gapirish to‘g‘riroq bo‘ladi, chunki frazema yakka so‘z bildirgan ma’noni anglatish bilan birga unga qo‘shimcha ma’noni ham bildirib keladi[1]. Shunday ekan ular til birligi sifatida kengroq tahlilni talab etadi.

Tildagi nominativ birliklarning ma’no tuzilishini o‘rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ

jihati tushunchasiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur masalani V.N.Teliya monografik tarzda tadqiq etgan bo‘lib, u “Konnotatsiya til birliklari semantikasiga uzual yoki okkazional ravishda kiradigan, nutq subyektining borliqni jumlada ifodalashida uning ayni shu borliqqa bo‘lgan hissiy baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko‘ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir”, – deya ta’kidlaydi[2]. Bunga ko‘ra, frazeologik birliklar semantikasi konnotatsiya – ifoda mazmunining faqat lug‘aviy (denotativ) emas, balki qo‘shimcha, subyektiv va emotsional tarkibiy qismlarini ham o‘z ichiga oladi. Frazeologizmlarning semantik tuzilmasida konnotativ qatlam, odatda, nutq egasining obyektiv voqelikni qanday baholashi, unga qanday stilistik yoki emotsional munosabatda bo‘lishi orqali yuzaga chiqadi. Bu jihatdan frazeologik birliklar sof nominatsiya emas, balki ayni voqelik yoki hodisaga bo‘lgan munosabatni ham kodlaydigan kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Materiallar va usullar/ Material and methods/ Материалы и методы

Atoqli tilshunos V.V. Vinogradovning ishlarida badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan alohida filologik fan – lingvopoetika fanini yaratish haqidagi fikrni o‘rtaga tashlaydi, shuningdek, badiiy asar tilini o‘rganadigan filologiyaning tarmog‘i sifatida lingvopoetikaning predmeti va vazifalari shakllantiriladi. V.V.Vinogradovning fikriga ko‘ra, lingvopoetik tadqiqotning vazifasi badiiy asarda til birliklarining estetik funksiyasini o‘rganishdan iboratp[3]. V.Vinogradov tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki badiiy-estetik tasvirlarning izchil tizimi deb talqin qiladi. Bunday yondashuvda har bir leksik birlik, shu qatori, frazeologizmlar ham muallifning estetik niyati va obraz yaratish mahorati bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli lingvopoetik tahlil usuli orqali asardagi turg‘un iboralar, ko‘chma ma’nolar, metaforalar, frazeologizmlar kabi til birliklarining qanday funksional yuklama bajarayotgani, qanday obraz hosil qilayotgani, muallifning qanday badiiy tamoyillarni qo‘llayotgani inobatga olinadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar lingvopoetik tahlilda alohida ahamiyatga ega, chunki ular asarda milliy ruh, obrazlilik, emotsional-estetik ta’sirchanlik yaratishda beqiyos vosita hisoblanadi. Masalan, badiiy matnda “yuragi bo‘g‘ziga kelmoq”, “ko‘z ochib yumguncha”, “qulog‘i ding bo‘lmoq” kabi frazemalar nafaqat semantik ma’lumot, balki hissiy ekspressivlik orqali obrazli tafakkurni yuzaga keltiradi. V.V.Vinogradovning bu qarashi nafaqat adabiy til, balki mualliflik uslubini, individual ijodiy yondashuvni, shuningdek, xalq tilining badiiy imkoniyatlarini chuqur va keng ochib berishga xizmat qiladi. Uning yondashuvi stilistika, semasiologiya va frazeologiyaning kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, til va adabiyot orasidagi aloqani chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Natijada lingvistik va adabiyotshunoslik tahlilning kesishgan nuqtasida tilshunoslikning yangi sohasi – lingvopoetika paydo bo‘ldi. Lingvopoetikaning predmeti, badiiy asarda qo‘llanilgan til birliklari bo‘lib, ular yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy-badiiy niyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni vujudga keltiradi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlariga doir ko‘plab izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, A.Abdusaidovning monografiya va o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy maqolalari hamda “Gazeta janrlarining til xususiyatlari” mavzuidagi doktorlik ishining alohida qismi frazeologizmlarning gazeta tilida ekspressivlikni ifodalovchi vosita sifatidagi rolini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotchi “yotib qolgan mahsulotlar”, “erning jilovini mahkamroq ushlamoq”, “ko‘rgiliklar botqog‘iga botgan”, “shikoyatchining noni butun bo‘lsa”, “ta’naning bir uchi tegadi” singari okkazional iboralarning gazeta tilida bir-ikki marta ishlatilib, so‘ng iste’moldan qolayotganligini, shu sababli ularni to‘plash, okkazional iboralar lug‘ati tuzish zarurligi haqida asosli fikr-mulohazalar bildiradi[4].

Natijalar va muhokama/ Results and discussion/ Результаты и обсуждение

Badiiy matnda qo‘llangan frazeologik birliklar quyidagi lingvopoetik vazifalarni bajaradi:

1. Obrazlilik va ma’no chuqurligini yaratish.

Frazeologik birliklar badiiy matnda tasvirning ifodaviyligini oshirish uchun ishlatiladi. Ular til birliklariga yangi semantik va obrazli qatlam qo‘shadi. M.Emirova ularning bunday vazifasini *simvolik funksiya* deb deb izohlaydi[5]. Frazeologizmlar so‘zning oddiy ma’nosidan chiqib, uning vositasida voqelikni obrazli aks ettiradi. Masalan,

Men seni juda qiynadim, har yo‘singa soldim – meni deb o‘tga-suvga kirding, istagimga har doim

bo‘ysunding, lekin men sening istagingga bo‘ysunmadim, do‘st. (I.Sulton. “Do‘st”) Ushbu frazeologizm matnda qahramonning har qanday mushkul ishni sira ikkilanmay bajarishga tayyorligini obrazli aks ettirish uchun ishlatilmoqda. Fidoiylikning shu darajada bo‘lishi odamning ichki olami va ruhiy holatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu ibora orqali yoshlikdan birga katta bo‘gan ikki do‘stning bir-biriga nisbatan his-tuyg‘ularini va ularning munosabatidagi qarama-qarshilikni ko‘rsatilmoqda. Bir tomon o‘zini doim do‘sti uchun qurbon qilgan, lekin do‘sti buni qadriga hech qachon yetmagan. “O‘t” va “suv” sinovlarning har xil turlarini, qahramon duch kelgan qiyinchiliklarning xilma-xilligini obrazli ravishda ochib beradi.

Bolalar adabiyoti degan dunyoning mag‘zini juda qisqa vaqt ichida chaqib ulgurgan va allaqachon undan o‘zib ketgan idrokimiz yanada zalvorliroq ma’nolarni xohlar edi (I.Sulton. “Meni ham turtib qo‘y, erta uyg‘onsang...”) Parchadagi “mag‘zini chaqmoq” iborasi “biror gap yoki voqea-hodisaning tub-tubigacha o‘rganib, anglab yetish” ma’nosida ishlatiladi[6]. Jismoniy harakat sifatida esa yong‘oq yoki danak ichidagi mag‘izni chaqib olish jarayoniga asoslangan bo‘lib, erkin birikma sifatida amaliy harakatni ifodalaydi, biroq mazkur matnda u ko‘chma ma’noda qo‘llanib, biror hodisa, jarayon yoki matnning mohiyatini tez va to‘liq anglab yetish, ya’ni chuqur idrok etish semasini hosil qilmoqda. Frazeologik obrazlilik bu yerda aniq jismoniy tajriba asosida abstrakt intellektual faoliyatni ifodalash orqali yuzaga keladi. “Mag‘iz” komponenti hodisaning asl mohiyatini, “chaqmoq” esa uni tushunish jarayonini obrazli tarzda aks ettiradi. Natijada ibora inson idrokining yetukligini ifodalovchi ekspressiv-semantik ma’noni ifodalaydi. Demak, “mag‘zini chaqmoq” iborasi matnda nafaqat ma’no ixchamligini ta’minlaydi, balki muallif fikrining obrazliligini oshiradi va uning ta’sirchanligini kuchaytiradi.

2. Emotsional ta’sir kuchini oshirish.

Frazeologik birliklar badiiy matnga emotsional tus beruvchi asosiy vositalaridan biridir. Ular o‘quvchida kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, qahramonning hissiy holatini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Iboralarning emotsionalligi ularning turli xil his-tuyg‘ular, shaxs va predmetlarga nisbatan subyektiv munosabatni ifodalashi bilan bog‘liqdir. Masalan,

Nima qilishimni bilmay boshim qotdi, icharga na dori-darmon bor, na men bir nima bilaman. (I.Sulton. “Do‘st”) Ushbu misoldagi “bosh qotirmoq” iborasi lug‘atlarda “astoydil o‘ylamoq”, “chuqur fikrlamoq”, “uzoq o‘ylab ham aniq bir fikrga kela olmaslik”, “o‘ylayverib gangimoq” shakllarida izohlanib, qahramonning mushkul vaziyatda nima qilishini bilmay ikkilanayotganini ta’kidlash uchun qo‘llanilgan. Mazkur iboraga sinonim sifatida “o‘ylab-o‘ylab, o‘y(i)ga yetolmaslik”, “bosh qotdi”, “bosh(i)ni qotirmoq”, “boshni qotirmoq”, “miya(si) qotdi”, “miya(si)ni qotirmoq”, “bosh(i) shishdi”, “g‘ovlab ketdi” kabilar qo‘llaniladi. Ushbu iboralar odamning fikrlaridagi chalkashlikni va ichki holatidagi tarqoqlikni jonli tasvirlash uchun qo‘llaniladi. O‘quvchi “boshning qotishi” tasviri orqali qahramonning murakkab ruhiy holatini jonli tarzda tasavvur qiladi. Bu ibora qahramonning o‘z muammolari bilan o‘ralashib qolgani va ularga yechim topolmayotganini ifodalaydi. U matnda insonning ruhan zaif holda ekanligini aks ettirmoqda. Matnda “boshi qotmoq” iborasining ishlatilishi qahramonning ruhiy va hissiy holatini tushunish uchun zarurdir. Ushbu ibora asardagi vaziyatni yanada dramatik va o‘quvchiga ta’sirchanroq yetkizib beradi. Qahramon yechim izlayapti, lekin uni topa olmayapti. Bu holat orqali uning qanchalik kuchli ichki dard qurshovida ekanligini ko‘rsatadi. Bu orqali uning ruhiy holatini va tashqi sharoitning noqulayligini ham namoyon bo‘lmoqda. Bu ibora vositasida qahramonning ichki kechinmalari matndagi umumiy tushkunlik, iztirob tuyg‘ulari bilan chambarchas bog‘liqdir.

3. *Diniy dunyoqarashni aks ettirish.*

Frazeologik birliklar xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettirishi bilan lingvomadaniy birliklar sanaladi. Ular badiiy matnda milliylik ruhi bilan sug‘orilgan obrazlar va g‘oyalarni kitobxonga yetkazishga xizmat qiladi. Masalan,

Allaqaysi mamlakatda o‘tkazilayotgan futbol musobaqasida kimning g‘olib chiqishini butun insoniyatga aynan mana shu sakkizoyoq bildirgan, biroq, afsuski, ikki soat oldin g‘aroyib jonzot jonini Haqqa topshirgan, eniyam, bo‘yiyam olti qulochlik ulkan shisha idish ichida hozir ifodasiz ko‘zlarini baqraytirib harakatsiz yotar edi. (I.Sulton “Yigirma birinchi asrning sakkiz yashar bolasi”) parchadagi jonini Haqqa topshirmoq iborasidagi “Haq” so‘zi islam dinida Allohga nisbatan qo‘llanadi. Shuning uchun “jonini Haqqa topshirmoq”

frazeologik birligi inson o‘limini shunchaki biologik jarayon sifatida emas, balki jonning Yaratganga qaytishini anglatadi. Demak, iborada o‘limga nisbatan diniy munosabat mujassamlashgandir.

4. Ma’no zichligini oshirish.

Frazeologizmlar yozuvchiga qisqalik va lo‘ndalikda chuqur mazmunni tushunarli ifodalash imkoniyatini beradi. Ular matnning ma’no zichligini oshiradi va bir necha so‘z orqali keng fikrni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

Poyonsiz dashtda, shamolli kechada mana shunday borishyapti-yu kishilar orasida og‘izdan og‘izga o‘tib yuradigan hamma vahimali narsalar hozir shamol qa’ridan chiqib keladiganday tuyulmoqda edi. (I.Sulton. “Shamolli kecha”) Ushbu misoldagi ibora, odatda, biror ma’lumotning “og‘zaki ravishda tez tarqalishi”, “odamlardan odamlarga o‘tib, kengroq e’lon qilinishi”ni ifodalaydi. Iboraning oddiygina “gap tarqalishi”ni anglatishdan tashqari, u ma’lumotning tezkorlik va yashirin harakterini, ba’zan esa uning ishonchlilik darajasidagi shubhalarni ifodalashini ham kuzatish mumkin. Isajon Sultonning “Shamolli kecha” hikoyasida ushbu iboraning qo‘llanilishi xabarlarning qanchalik vahimali va noaniq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Mazkur ibora odamlardagi biror axborotning boshqalarga tarqalishi bilan bog‘liq qo‘rquv va xavotirni kuchaytiradi.

5. Matnni aktualizatsiya qilish.

Frazeologik birliklar kontekstga qarab o‘zining asosiy yoki ko‘chma ma’nosidan chiqib, yangi semantik ma’no yuklaydi. Bu esa matnda lingvistik va poetik funksiyalarning uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Masalan,

Kuchuk ozg‘in, qovurg‘a suyaklari sanalib turibdi, goho o‘rnidan qalqib silkinganida yungidan duv etib tomchilar to‘kiladi. (I.Sulton. “Ozor”) Parchadagi suyagi sanalmoq iborasi orqali ijodkor kuchukning faqat ozg‘inligigagina emas, balki ahvolining ham achinarli darajada ekanligiga ishora qilmoqda.

Xulosa/ Conclusion/ Заключение

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida qo‘llangan frazeologik birliklar asarlarning badiiy-estetik qimmatini oshiruvchi asosiy unsurlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Frazeologizmlar xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq milliy madaniy qatlamlarni yoritadi, qahramonlarning ruhiy holatini chuqurroq ochish va matnning semantik hamda stilistik ko‘lamini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif ulardan nafaqat voqealar rivojini obrazli ifodalash, balki o‘quvchida ma’lum hissiyot uyg‘otish va voqealarni yanada tushunarli aks ettirish imkonini beradi. Isajon Sulton o‘z hikoyalarida frazeologizmlarni qo‘llash orqali ularga yangi ma’no beradi va obrazlilikni kuchaytiradi. Natijada, iboralar oddiy nutqiy birlik sifatida qaralmaydi, balki ular o‘ziga xos badiiy funksiyaga ega vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi hikoyalarida qo‘llangan frazeologizmlar qahramonlarning ruhiy holatini va voqealar rivojini ifodalashda uning individual mahorati namoyon qiladi. Iboralarning milliy madaniyat va hayotiy tajribalarga asoslanganligi o‘quvchiga badiiy matnni chuqurroq anglash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – Б. 76-77.

[2] Телия В.Н. Коннотативнқй аспект семантики номинативных единец. – М.: Наука. – С. 5.

[3] Виноградов В.В. Языкхудожественного произведения // Вопросы языкознания. – М., 1954.

[4] Абдусаидов А. Фразеологизмлар – матбуот тилида таъсирчан восита. Док. дисс… – Самарқанд: 2001. – Б. 48.

[5] Эмирова А. М. Некоторые актуальные вопросы современной русской фразеологии. – Самарканд, 1972. – С. 97.

[6] Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I, Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati.

[7] – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B. 563.